

INGLIZ TILIDAGI AYRIM IDIOMALARNING TARJIMASI XUSUSIDA

Xudoyqulov Behzod

DTPI o'qituvchisi,
bekhzod338@gmail.com

Berdiyev So'xrob

DTPI o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Frazeologik birliklar milliy adabiy tilning ham og'zaki, ham yozma shaklida; og'zaki ham yozma nutqda keng qo'llanuvchi til hodisalaridir. Tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri frazeologizmlardir. Frazeologizmlar til birligi sifatida nutqda namoyon bo'ladi. Ular nutqning ta'sirchan va buyoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilde so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Har bir tildagi frazeologizmlarni o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi ayrim idiomatik iboralarning tarjimasi va ularning semantik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Frazeologik birliklar, tarjima, shakl va ma'no, ko'chma ma'no.*

TRANSLATION OF SOME IDIOMATIC EXPRESSIONS IN ENGLISH LANGUAGE

Khudaykulov Bekhzod

Teacher of Denau institute of entrepreneurship and pedagogy.

Berdiyev Sukhrob

Teacher of Denau institute of entrepreneurship and pedagogy.

ABSTRACT

Nowadays, one of the most important issues is: translation questions of phraseological units into other languages. It is important to translate and to find equivalence phraseological units from source language into target one. The problem of the equivalence is one of the most important aspects in the comparative study of phraseology. The most significant feature of phraseological units in each language is to find its equivalent into other language.

In this article, following English idiomatic expressions has been analyzed with semantic meaning. The phraseological equivalence is shown in the translation of

fruit idioms in English. Theoretical data about idioms are discussed and analyzed with reasonable examples.

Keywords: *Phraseology, phraseological unit, translation, meaning, figurative meaning.*

KIRISH

Frazeologik iboralar qaysi shaklda qo'llanishidan qat'iy nazar tilda o'ziga xos normaga egaligi ko'rinadi. Xuddi shu normativlik ularning bir tildan ikkinchi tilga o'tishini qiyinlashtiradi. Frazeologizmlar, odatda, ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan tashkil topishi natijasida ularning ko'rinishi so'z birikmalariga o'xshaydi. Hatto shunday frazeologizmlar va so'z birikmalari borki, ularni ibora va birikma holida farqlash oson kechmaydi. Bundan anglashiladiki, so'z birikmalari denotativ, frazeologizmlar esa konnotativ xususiyat kasb etadi hamda ularni kontekstdan farqlashga to'g'ri keladi. Demak, so'zlarning har qanday birikuvi frazeologizm hisoblanmaydi. Ular tuzilishi va ma'no-mazmuni jihatidan murakkab, ko'p aspektli til hodisasi bo'lib, muayyan normasi va spetsifik belgilari mavjud. Iboralar shakllanishida azaldan xalq tilining o'rni va roli katta. Aslida xalq tilida yaratilgan iboralar asta-sekin adabiy tilga badiiy asarlar orqali kirib borgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologizmlar barcha tillarda qiziqarli, chunki ularni so'zma-so'z tarjima qilish va tushunish imkonsiz. Frazeologik birikmalar tilni jonlantiradi, ularni rivojlantirish qiyin bo'lsa ham, ular jilolangan va tilda alohida o'rin egallaydi. Ko'pincha ular mamlakat madaniyati va tarixi bilan bog'liq. Xuddi shu kabi xususiyatlarga ega ingliz tilidagi ayrim idiomatik iboralarni o'zbek tilidagi tarjimasi orqali ko'rib chiqamiz:

- *The apple of your eye* - yoqimtoy, suyakli
- *Go bananas* – g'azablanish, jahli chiqmoq
- *A bite at the cherry* – muvaffaqiyatga erishish
- *Not give a fig* – ahamiyatsiz
- *Apples and oranges* – bir-biridan o'zgacha
- *Lemon* - yaroqsiz
- *As red as a cherry* – qirmizi
- *Cherry-pick* – eng kerakli, ahamiyatli
- *The cherry on the cake* – mukammal yakun
- *A second bite at the cherry* – ikkinchi imkoniyat

- *Life is a bowl of cherries* – yoqimli hayot
- *As American as apple pie* – Amerikaga xos, o'xshash
- *Bad apple* – muammoli, xudbin
- *The apple never falls far from the tree* – olmani tagiga olma tushadi
- *Upset the apple cart* - rejasiz
- *Big Apple* – New Yorkning norasmiy nomi
- *When life gives you lemons, make lemonade* – imkoniyatdan unumli foydalanish

- *Top banana* – haqiqiy rahbar
- *A plum job* – ma'qul ish
- *To be a peach* – haddan ortiq jozibali
- *Peaches and cream* – doimiy jarayonda
- *Cool as a cucumber* – o'zini-o'zi tutib olgan
- *Go pear-shaped* – adashmoq, noto'g'ri yo'lda bo'lmoq
- *Not give a fig* – butunlay e'tibor bermaslik
- *To Bear Fruit* – to'g'ri yondoshmoq, ijobiy rivojlantirish
- *Through the Grapevine* – g'iybat orqali

Ushbu iboralar orasida faqat ayrimlarining boshqa tillarda ham ekvivalenti borligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: *The apple never falls far from the tree* – olmani tagiga olma tushadi; iborasi O'zbek tilida ham mavjud. Bundan tashqari Italian tilida ham shu manoga teng ibora mavjud: *Una mela non cade lontana dall'albero*¹ - So'zma so'z tarjimada, "olma o'z daraxtidan uzoqqa tushmaydi" Ibora holatida esa, "Olmani tagiga olma tushadi"; farzandning ota-onasidan unchalik farq qilmasligini anglatadi, ko'pincha negativ ma'noda ishlatiladi.

Masalan: "*Pensavo che Mario fosse diverso da suo padre e invece è cattivo come lui*" "*Eh, purtroppo una mela non cade lontana dall'albero*" – Men Marioning otasiga o'xshamaydi deb o'ylardim, lekin u ham xuddi otasidek yomon, afsuski farzandlar doim ota-onasiga o'xshaydi.

XULOSA

Qiyoslanayotgan tillardagi har xil tipdagi frazeologik ekvivalentlarni ko'rsatish chet tilini o'rganish va tarjimani o'rganishga xizmat qiladi, ekvivalentlarning o'zi bo'lsa ikki tilli lug'atlarda ko'rsatiladi. Aniq, konkret frazeologik birliklarni qiyoslash har xil yo'nalishga material yig'ishga yordam beradi: tarjima nazariyasi,

¹ Oltiev T., Xudoyqulov B. Italian tilidagi iboralarining tarjimasi" lug'ati. – 2021.

frazeografiya nazariyasi va qiyosiy – tipologik tadqiqotlar. Bularning asosida konkret frazeologik birliklar o'rtasida har tomonlama o'rganilish ob'ekti yotadi .Bunday moslik bo'lmasa, frazeologik birliklar o'rtasida to'liq farq bo'ladi.

REFERENCES

1. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasini lug'ati. – 2021.
2. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Лексикология. – Т.: Ўқитувчи, 1965. – Б.133-135
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.188.
4. Khudaykulov B., Abdumalikov F. The Equivalence of the Italian and Uzbek Phrase logical Units. – 2022.
5. Xudoyqulov, B., & Jumayeva, M. (2022). FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA). *Academic research in educational sciences*, 3(2), 698-706.